XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-15-156-8-113-K/25 Qiziriq tumani

Qiziriq tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-son qaroriga muvofiq hamda Surxondaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2025-yil 26-dekabrdagi 22-13-04/136-sonli xatini xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi yig‘ilishi muhokamasida depuatatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib, xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Surxondaryo viloyat Kengashining 2025-yil 26-dekabrdagi VII-17-173-8-0-K/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qiziriq tumani budjetining 2026-yilgi daromadlari **98 349 350 ming so‘m**, xarajatlari **98 349 350 ming so‘m,** shuningdek Qiziriq tumani budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **271 387 ming so‘m** etib belgilansin.

3 Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga, tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga, tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlari va boshqa soliqsiz tushumlardan ajratmalar me’yorlari 3-ilovaga, tuman mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlari chegaraviy hajmi 4-ilovaga, tuman budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1 209 000 ming so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i U.Panjiyev, tuman soliq inspeksiyasi (I.Abdullayev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Bo‘riyev)ga mazkur qarorni tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritish tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (B.Ochildiyev) zimmasiga yuklatilsin.

9. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi

OCHILDIYEV BOXADIR BENAYEVICH

Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-156-8-113-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetining daromadlarining 2026-yildagi asosiy prognoz koʻrsatkichlari

(ming soʻmda)

T/r	Daromad turlari	Jami
I.	**Mahalliy soliq va tushumlar**	**98 349 350**
1	Foyda soligʻi	1 364 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	43 936 000
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari boʻyicha toʻlanadigan daromad soligʻi	810 000
4	Aylanmadan olinadigan soliq	3 317 000
5	Qoʻshilgan qiymat soligʻi	1 848 000
6	Aksiz soligʻi jami	1 683 450
	shu jumladan:	
	Yakuniy isteʼmolchilarga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz soligʻi	*1 683 450*
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2 806 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 483 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻi	6 992 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	18 563 000
11	Davlat bojlari	2 976 000
12	Jarimalar	3 793 160

13	Davlat mulkini ijarasidan tushumlar	200 000
14	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	20 000
15	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 356 800
	Ma‘lumot uchun	
	Qishloq xo‘jaligi korxonalari suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 935 200
16	Yig‘imlar	1 200 940
Daromadlar hammasi		**98 349 350,0**

Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-156-8-113-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Qiziriq tuman 2026-yilda budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so'm

T/r	Mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdori
Xarajatlar miqdori, jami		**98 349 350,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**98 349 350,0**
1	**Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tashkilotlarga**	**29 786 373,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	29 786 373,0
	shundan:	
	"Menning maktabim" jamg'armasiga	*3 090 000,0*
2	**Madaniyat bo‘limi tashkilotlarga**	**4 091 092,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 091 092,0
3	**Sport bo‘limi**	**4 577 134,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	4 577 134,0
4	**Veterinariya va chorvachilik rivojlantirish bo‘limi**	**2 243 725,0**

	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 243 725,0
5	**Irrigatsiya bo‘limi (Suv yetkazib berish xizmati)**	**1 998 435,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 998 435,0
6	**Yoshlar ishlar bo‘limi saqlash xarajatlari**	**2 572 788,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 572 788,0
7	**Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari**	**134 651,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	134 651,0
8	**Hokimiyat**	**35 625 016,0**
	shundan:	
	Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	*2 674 539,0*
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	*1 929 197,0*
	Madaniyat bo‘limi	*158 225,0*
	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	*424 233,0*
	Investitsiyalar, sanoat va savdo bo‘limi	*183 778,0*
	Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi	*364 952,0*
	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	*983 722,0*
	Oila va xotin-qizlar bo‘limi	*281 924,0*
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	*13 667 695,0*
	"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	*2 484 067,0*
	Zahira jamg‘armasi	*1 209 000,0*

9	**Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)**	**773 935,0**
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	*51 119*
	Axborot-kutubxona markazlari	*722 816*
10	**Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari**	**16 546 201,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 546 201,0

Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-156-8-113-K/25 -son qaroriga
3-ilova

2026-yilda umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to‘lovlar hamda soliq bo‘lmagan to‘lovlar bo‘yicha belgilanadigan ajratma me’yorlari

foiz hisobida

№	Hududlar nomi	Qo‘shilgan qiymat solig‘i				Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i				Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan				Foyda solig‘i				alkogol mahsulotlari (pivodan tashqari)				pivo				benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i				Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq			
		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga		Tuman budjetiga		Viloyatning viloyat budjetiga	
		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar

| | | |

		Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	Yirik soliq to‘lovchilar	Hududiy soliq to‘lovchilar	etiga	gviloyat budjetiga	etiga	gviloyat budjetiga	etiga	gviloyat budjetiga	etiga	gviloyat budjetiga	etiga	gviloyat budjetiga	etiga	gviloyat budjetiga		
1	Qizirriq	0%	1000%	1000%	0%	0%	1000%	1000%	0%	0%	1000%	1000%	0%	0%	0%	1000%	1000%	62%	38%	62%	38%	62%	38%	1000%	0%	1000%	0%	1000%	0%	100%	0%

Izoh:

1. Davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budjetlarga tushumlar hamda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari tuman va viloyat budjeti o‘rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.
2. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 890, 3 450 891, 3 450 892 daromad kodi bo‘yicha) tushgan pul mablag‘lari tuman budjetiga qoldiriladi.
3. Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar xamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-156-8-113-K/25 -son qaroriga
4-ilova

Qiziriq tumani mahalliy budjetining 2026-yil daromadlari va xarajatlarning chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Mahalliy budjetlarning jami daromadlar**	**shundan**		**Mahalliy budjet xarajatlari**
		Mahalliy budjet daromadlari	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Qiziriq tumani	98 349 350	98 349 350	0	98 349 350

Xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-15-156-8-113-K/25 -son qaroriga
5-ilova

2026-yilda tuman mahalliy budjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

Hudud nomi	Miqdor
Qiziriq tumani	271 387,0